

## KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 58738 tani tashkil qilib, shundan 46538 tasi yoki 79,2 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga 35402 ta (60,3 foizi), savdo 5664 ta (9,6 foizi), sanoat 4680 ta (8,0 foizi), qurilish 2201 ta (3,7 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1578 ta (2,7 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

### 2018 yilning 1 oktyabr holatiga korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>58738</b>	<b>100,0</b>	<b>46538</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	<b>35402</b>	60,3	<b>24179</b>	52,0
Sanoat	<b>4680</b>	8,0	<b>4483</b>	9,6
Qurilish	<b>2201</b>	3,7	<b>2069</b>	4,4
Savdo	<b>5664</b>	9,6	<b>5398</b>	11,6
Tashish va saqlash	<b>802</b>	1,4	<b>776</b>	1,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	<b>1578</b>	2,7	<b>1517</b>	3,3
Axborot va aloqa	<b>432</b>	0,7	<b>403</b>	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	<b>556</b>	0,9	<b>544</b>	1,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	<b>7423</b>	12,7	<b>7169</b>	15,3


Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 6,6 foizi davlat va 93,4 nodavlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

**Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar**  
(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)



Nodavlat mulki shaklidagi korxonalar 93,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 9,5 foizi xususiy korxonalar, 0,7 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 4,3 foizi oylaviy korxonalar va 85,5 foizi boshqa korxonalar ulushiga to'g'ri keldi.

**Ro'yxatga olingan nodavlat mulkidagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning**  
(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)



2018 yil yanvar-sentyabrda jami 5335 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (19,4 foizi), Pastdarg'om (10,0 foiz), Payariq tumanida (8,0 foiz), Urgut (7,9 foiz), Ishtixon (7,4 foiz), Qo'shrabot tumanida (5,9 foiz), Samarqand (5,8 foiz), Kattaqo'rg'on (5,6 foiz) va Jomboy (4,9 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 40,9 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,3 foizi savdo, 15,0 foizi sanoat, 11,8 foizi boshqa sohalar, 7,7 qurilish hamda 6,3 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida 1457 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 224 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 15,4 foizi) ixtiyoriy tugatilish tartibini qo'llash orqali tugatilgan.

### **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda jami 376 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 282 tasi qo'shma korxonalar, 94 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi**

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahri (193 ta yoki 51,3 foizi), Urgut tumanida (38 ta 10,1 foizi), Jomboy (31 ta 8,2 foizi), Samarqand (20 ta 5,3foizi), Tayloq (15 ta 4,0 foizi), Oqdaryo (17 ta 4,5 foizi), Pastdarg'om (12 ta 3,2foizi) va Kattaqo'rg'on shahrida (10 ta 2,7 foiz), Nurobod (8 ta 2,1 foizi), Bulung'ur tumanlari (7tadan 1,9 foizi) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot (1 ta 0,3 foizi), Kattaqo'rg'on (3 ta 0,8 foizi), Narpay ( 4 ta 1,1 foizi), va Paxtachi tumanlari (5 tadan 1,3 foizi) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


	<i>soni</i>	<i>ulushi,%</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>376</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh	193	51,3
Kattaqo'rg'on sh	10	2,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	17	4,5
Bulung'ur	7	1,9
Jomboy	31	8,2
Ishtixon	6	1,6
Kattaqo'rg'on	3	0,8
Qo'shrabot	1	0,3
Narpay	4	1,1
Payariq	6	1,6
Pastdarg'om	12	3,2
Paxtachi	5	1,3
Samarqand	20	5,3
Nurobod	8	2,1
Urgut	38	10,1
Tayloq	15	4,0

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda**



Sohalat kesimida ushbu ma'lumotni 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p sanoatda 232 ta (61,7 foiz), savdoda 54 ta (14,4 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 29 ta (7,7 foiz), boshqa turlarida esa 23 ta (6,1 foiz)ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (0,8 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta (1,1 foiz), tashish va saqlash 6 ta (1,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 tadan (2,9 foiz)ni hamda qurilishda 14 (3,7 foiz)ni tashkil qilgan

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**




2018 yil yanvar-sentyabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 99 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahri (57 ta), Oqdaryo (7 ta), Jomboy, Urgut va Tayloq tumanrida (5 tadan), Payariq va Samarqand tumanlarida (4 tadan), Ishtixon (3 ta), Kattaqo'rg'on shahar, Kattaqo'rg'on va Pastdarg'om tumanlarida (2 tadan) hamda Narpay, Paxtachi va Nurobod tumanlarida (1 tadan) tashkil etilgan. Qolgan tumanlarni xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan qatoriga kiritish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 38 ta, savdoda 20 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15 ta, qurilishda 12 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha

xizmatlarda 5 ta, axborot va aloqada 1 ta hamda boshqa faoliyat turlarida 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

***Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda***




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni 18865 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 18,2 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy qismi, ya'ni 6322 tasi (33,5 foizi) Samarqand shahriga, 1791 tasi (9,5 foizi) Urgut, 1410 tasi (7,5 foizi) Pastdarg'om hamda 1372 tasi (7,3 foizi) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylari davomida 3250 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilga qaraganda 21,1 foizga oshgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'yektlari Samarqand shahrida (957 ta), Samarqand (270 ta), Urgut (250 ta) Pastdarg'om (241 ta) va Payariq tumanlarida (201 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari esa Paxtachida (61 ta) hamda Qo'shrabot (74 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.


### Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari, birlikda



### Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 2347 tani tashkil etib, ulardan 2278 tasi yoki 97,1 foizi faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 50,5 foizga o'sgan.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi, ya'ni 742 tasi Samarqand shahriga, 253 tasi Ishtixon, 238 tasi Samarqand hamda 229 tasi Pastdarg'om tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 33,9 foizi yoki 773 tasi sanoat, 26,7 foizi yoki 608 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,0 foizi yoki 411 tasi savdo, 9,7 foizi yoki 222 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 foizi yoki 36 tasi axborot va aloqa, 1,1 foizi yoki 26 tasi qurilish, 0,9 foizi yoki 20 tasi tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 0,4 foizi yoki 9 tasi hamda 7,7 foizi yoki 173 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda**

